

**OCHILOVA N.R
KARSHIYEVA D.R**

HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI



UZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

OCHILOVA N.R
KARSHIYEVA D.R

HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI FANIDAN
5140500-KIMYO TA'LIM YO'NALISHI 3-KURS TALABALARI
UCHUN
(o'quv- uslubiy qo'llanma)

Buxoro – 2021

1. Buxoro davlat universiteti professori, biologiya fanlari doktori - A.E. Xolliyev
2. Buxoro davlat tibbiyot instituti professori, tibbiyot fanlari doktori - SH.J. Teshayev

Ushbu o'quv – uslubiy qo'llanma Hayot faoliyati xavfsizligi Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2018 yil 14 iyundagi 5311500 sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan namunaviy fan dasturidan tayyorlandi. Namunaviy fan dasturining ma'ruzalar uchun ajratilgan Hayot faoliyati xavfsizligini ta'minlash asoslari, Hayot faoliyati xavfsizligining huquqiy va tashkiliy asoslari, Ishlab chiqarish jarayonlari sanitariyasi va gigiyenasi, Favqulodda vaziyatlarda fuqarolar muhofazasi, Yong'in xavfsizligi, Birinchi tibbiy yordam ko'rsatish asoslari bo'limlarini o'z ichiga olgan.

Qo'llanmadan barcha yo'nalish bakalavr bosqichi talabalari, hamda barcha shu fanga qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining hayoti va sog'lig'ini inson faoliyatining barcha sohalarida muhofazalashda „Hayot faoliyati xavfsizligi“ (HFH) fani asosiy o'rinlardan birini egallaydi.

KIRISH

Ushbu fan tarixi, rivoji va istiqboli hamda Respublikamizdagi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar natijalari, ishlab chiqarish va xududiy xavfsizlik muammolarining inson hayoti xavfsizligiga ta'siri masalalarini qamraydi. Zero hozirgi vaziyatda xavfsiz hayotni ta'minlash masalalari eng dolzarb muammolardan hisoblanadi. Chunki texnosferalarda ishlab chiqarish jarayoni buzilishi, ishlovchilar uchun sanitariya va gigiyena me'yor va qoidalarini yaratilmastigi, muhit rivojlanishidagi noxush vaziyatlarining murakkablashuvi, davlatlar o'rtasida insoniyat hayotiga xavf-xatar soluvchi holatlarning ro'y berishi, insoniyat tomonidan qo'llanilayotgan turli zaharli va zararli moddalar va vositalar ko'plab xavflarni yuzaga keltirib, insonlarning hayotiy faoliyatiga, sog'lig'iga, atro-muhit tozaligiga va iqtisodiyotining barqaror rivojlanishiga tahdid solmoqda. Shu sababli ham mamlakatimizning eng muhim va kechiktirib bo'lmaydigan vazifalari qatorida aholi hayotining xavfsizligini ta'minlash masalalari dolzarb o'rin olgan. Aynan shu muammolarning echimini „Hayot faoliyati xavfsizligi“ fani o'rganadi.

Ushbu fanni o'qitishdan maqsad bo'lajak mutaxassislarга hayotiy faoliyatlarida yuzaga keladigan xavflarning kelib chiqish sabablarini, xususiyatlarini, oqibatlarini va ularni yo'qotish qoidalarini, xavfsiz ish sharoitlarini yaratish, tabiiy, texnologik va boshqa tushdagi favqulodda vaziyatlardan aholini himoya qilish, ularni nazariy va amaliy jihatdan himoyalashga hamda jarohat olganlarga birlamchi tibbiy yordam ko'rsatish qoidalarini o'rganishdan iborat.

O'quv fanini o'rganishning asosiy vazifalari: hayotiy faoliyatda yuzaga keladigan xavflarni identifikatsiyalash va ularni o'rganish, ishlab chiqarish jarayonlarida xavfsiz mehnat sharoitlarini yaratish, texnosferada kasb kasalliklarini kamaytiradigan va baxtsiz hodisalarni oldini oladigan chora-tadbirlarni o'rganish. SHuningdek, aholini tabiiy ofat, avariya va halokatlardan himoyalash usullariga o'rgatish, zararlangan shikastlanish o'choqlaridagi fuqarolarni qutqarish va tiklov ishlarini o'tkazish, yong'inga qarshi xavfsizlik choralarini ko'rish, jarohat olganlarga birlamchi tibbiy yordam ko'rsatish va boshqa muhim vazifalarni bajarish uchun zarur bilim, ko'nikma va kasbiy malakaga ega insonni tayyorlashga qaratilgan.

Yuqoridagi vazifalardan kelib chiqib «Hayot faoliyati xavfsizligi» o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida mutaxassislar:

- bilimlarning bir butun tizimi bilan o'zaro bog'liqlikda ushbu fanning asosiy muammolari to'g'risida;
- o'z bo'lajak kasbining mohiyati va ijtimoiy ahamiyati to'g'risida;
- xavf-xatarlarni identifikatsiyalash;
- xavfsizlikni ta'minlash tamoyillari, uslublari va vositalarini tahlil qilish;
- faoliyatning xavfsiz sharoitlarini loyihalash;
- ishlab chiqarish sanitariyasi va mehnat gigiyenasi to'g'risida tasavvurga ega bo'lishi.

Бухоро давлат университети
ўқув-методик кенгаш 10-сонли
йиғилишининг баённомасидан
К Ҳ Ч И Р М А

29.05.2021

Бухоро шаҳри

К У Н Т А Р Т И Б И:

1. Турли масалалар.

Экология ва география кафедраси ўқитувчилари Н.Р. Очилова ва Д.Р. Қаршиеваларнинг 5140500-Кимё таълим йўналиши учун “Ҳаёт фаолияти хавфсизлиги” деб номланган ўқув-услубий қўлланмани тавсия этиш.

Э Ш И Т И Л Д И:

М.Ю. Фарманова (кенгаш котибаси) - Экология ва география кафедраси ўқитувчилари Н.Р. Очилова ва Д.Р. Қаршиеваларнинг 5140500-Кимё таълим йўналиши учун “Ҳаёт фаолияти хавфсизлиги” деб номланган ўқув-услубий қўлланмани нашрга тавсия этишни маълум қилди. Ушбу ўқув-услубий қўлланмага: Бухоро Тиббиёт институти профессорлари, тиббиёт фанлари доктори Ш.Ж. Тешаев ва б.ф.д., профессор А.Э. Холлиевлар томонидан ижобий тақриз берилгани таъкидланди. Ушбу ўқув-услубий қўлланма муҳокамаси ҳақидаги Табиий фанлар факультети (2021 йил 29 май) ва Экология ва география кафедраси (2021 йил 8 май) йиғилиш қарори билан таништирди.

Юқоридагиларни инobatга олиб ўқув-методик кенгаш

Қ А Р О Р Қ И Л А Д И:

1. Экология ва география кафедраси ўқитувчилари Н.Р. Очилова ва Д.Р. Қаршиеваларнинг 5140500-Кимё таълим йўналиши учун “Ҳаёт фаолияти хавфсизлиги” деб номланган ўқув-услубий қўлланма нашрга тавсия этилсин.
2. Ушбу қарорни тасдиқлаш университет Кенгашидан сўралсин.

Ўқув-методик кенгаш раиси
Ўқув-методик кенгаш котиби

Кўчирма асдига тўғри

Ўқув-методик кенгаш котиби

М.И. Даминов
М.Ю. Фарманова

М.Ю. Фарманова



Бухоро давлат университети Табиий фанлар факультети
Илмий кенгашининг 10-сонли
йиғилиши баённомасидан

КЎЧИРМА

Бухоро шаҳри
2021 йил 29 май

Кенгаш раиси: Э.Д. Ниёзов
Кенгаш котиби: Ф. Нуритдинова
Жами кенгаш аъзоси: 25 нафар
Қатнашди: 22 нафар кенгаш
аъзоси

КУН ТАРТИБИ:

5. Турли масалалар.

5.7. Бухоро давлат университети Экология ва география кафедраси ўқитувчилари Н.Р. Очилова ва Д.Р. Қаршиева томонларидан тайёрлаган “Ҳаёт фаолияти” фанидан ўқув-услугий қўлланмаларини нашр этишга тавсия этиш тўғрисида

Э Ш И Т И Л Д И:

Ф.Нуритдинова (котиб) - йиғилиш аъзоларини Экология ва география кафедраси 39-йиғилиши баённомасининг кўчирмаси билан таништирди. Кўчирмада Бухоро давлат университети Экология ва география кафедраси ўқитувчилари Н.Р. Очилова ва Д.Р. Қаршиева томонларидан тайёрлаган “Ҳаёт фаолияти” фанидан ўқув-услугий қўлланмаларини нашр этишга тавсия этиш тўғрисидаги йиғилиш қарори билан таништирди.

Мазкур қўлланманинг аҳамияти тўғрисида кафедра мудирини катта ўқитувчи (PhD) Ё.Д.Холов ва Ф.А. Файзиевалар сўзга чиқиб, мазкур номдаги ўқув қўлланма республика бўйича кимё таълим йўналиши бўйича ҳали ёзилмаганлигини, уни чоп этириш жуда зарур масала эканлигини ҳамда унда келтирилган мавзулар айна даврдаги глобаллашув жараёни билан ҳамроҳанг эканлигини алоҳида таъкидлаб ўтдилар.

Қўлланмага Бухоро давлат тиббиёт институти профессори, т.ф.д. Ш.Т. Тешаев ва Бухоро давлат университети профессор, б.ф.д. А.Э. Холиевлар томонидан ижобий тақризлар берилганлиги айтилди ва уни чоп этишга тавсия этиш таклифи овозга қўйилди.

Йиғилиш аъзолари билдирилган таклифни бир овоздан қўллаб-қувватладилар.

Муҳокама этилган масала юзасидан қуйидагича

КАРОР ҚИЛИНДИ

1. Бухоро давлат университети Экология ва география ўқитувчилари Н.Р. Очилова ва Д.Р. Қаршинева томонларидан тайёрлаган "Ҳаёт фаолияти" фанидан ўқув-ўслубий қўлланмаларини нашр этишга тасвир этиш тўғрисидаги кафедра йиғилиши қарори маъқуллансин.

2. Ушбу қарорни тасдиқлаш университети ўқув-методик кенгашидан сўралсин.

Йиғилиш раиси:

Йиғилиш котиби:



Э.Д. Ниёзов

Ф.М. Нурутдинова

**Н.Р. Очилова ва Д.Р. Қаршиеваларнинг “Ҳаёт фаолияти хавфсизлиги”
номли ўқув услубий қўлланмасига**

ТА Қ Р И З

Республикада «Кадрлар тайёрлаш миллий дастури»нинг қабул қилиниши билан таълим тизими ислоҳ қилина бошланди. Таълимни ислоҳ қилишнинг иккинчи босқичида замон талабларига мос ўқув адабиётларининг янги авлодини яратиш кўзда тутилган.

Қўлланмада ҳаёт фаолияти хавфсизлигининг асосий тушунчалари келтирилган бўлиб, унда фаннинг мақсади, вазифалари, маиший муҳит ёки ишлаб чиқариш муҳитидаги хавфлар ва уларнинг таксономиясини ўрганиш усуллари батафсил келтирилган.

Ушбу ўқув услубий қўлланма узлуксиз таълим учун ўқув адабиётларининг янги авлодини яратиш Концепциясига мувофиқ олий таълим муассасаларининг магистратура мутахассисликлари учун ишлаб чиқилган ва илғор жаҳон тажрибалари, услубиёти, технологиялари ва хорижий адабиётлар асосида яратилган.

Ўқув услубий қўлланмага ўзбек, рус ва инглиз тилларида аннотация ва мундарижа киритилган, бу ўқув қўлланмаларга ҳозирги замонда қўйилаётган талабларига тўлиқ жавоб беради. Ўқув услубий қўлланманинг охирида келтирилган адабиётлар рўйхати охириги 3-5 йилликдаги адабиётлар келтирилган бўлиб бунда муаллифлар чет эл адабиётларидан самарали фойдаланилганлигидан далолат беради. Рўйхатда турли йиллар нашр қилинган адабиётлар келтирилган. Бу талабаларни ўқув ҳамда илмий адабиётларни расмийлаштиришга ўргатади.

Бу эса ўз навбатида Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлигининг 2016 йил 6 апрелдаги 137- сонли буйруғида кўрсатилган талаблар асосида бажарилганлиги ҳамда илғор жаҳон тажрибалари, услубиёти ва технологиялари билан етарлича бойитилганлигидан далолат беради.

Ўқув услубий қўлланма, кирилди нисбатидан ўтилган китобдир. Ўқув қўлланманинг охирида келтирилган турли йилларда нашр қилинган адабиётлар, шу жумладан, сўнги беш йилда чоп этилган адабиётлар ҳам бор.

Ўқув услубий қўлланма ўз мазмуни ва моҳияти, тузилishi ва бошқа жиҳатлари билан замонавий ўқув қўлланмаларга қўйиладиган барча ўқув-методик, илмий ва дидактик талабларга тўлиқ жавоб беради. Юқоридигилардан келиб чиқиб, "Ҳаёт фаолияти калфисиллиги" ўқув услубий қўлланмасини нашр этишга тавсия этаман.

Тақриғчи:

Бухоро давлат университети

профессори, биология фанлари доктори



А.Э. Халлилов

ТА Қ Р И З

Республикамизда «Кадрлар тайёрлаш миллий дастури»нинг қабул қилиниши билан таълим тизими ислоҳ қилина бошланди. Таълимни ислоҳ қилишнинг иккинчи босқичида замон талабларига мос ўқув адабиётларининг янги авлодини яратиш кўзда тутилган.

Қўлланмада ҳаёт фаолияти хавфсизлигининг асосий тушунчалари келтирилган бўлиб, унда фаннинг мақсади, вазифалари, маиший муҳит ёки ишлаб чиқариш муҳотидаги хавфлар ва уларнинг таксономиясини ўрганиш усуллари батафсил келтирилган.

Ушбу ўқув услубий қўлланма узлуксиз таълим учун ўқув адабиётларининг янги авлодини яратиш Концепциясига мувофиқ олий таълим муассасаларининг магистратура мутахассисликлари учун ишлаб чиқилган ва илғор жаҳон тажрибалари, услубиёти, технологиялари ва хорижий адабиётлар асосида яратилган.

Ўқув услубий қўлланмага ўзбек, рус ва инглиз тилларида аннотация ва мундарижа киритилган, бу ўқув қўлланмаларга ҳозирги замонда қўйилаётган талабларига тўлиқ жавоб беради. Ўқув қўлланманинг охирида келтирилган адабиётлар рўйхатида чет мамлакатларда нашр қилинган Л.А. Михайлованинг “Безопасность жизнедеятельности”, В.Ю. Микрюковнинг “Безопасность жизнедеятельности” каби дарслик ва ўқув қўлланмаларидан фойдаланилганлиги бошқа адабиётлар билан ишлашга ҳам чорлайди. Рўйхатда турли йиллар нашр қилинган адабиётлар, шу жумладан, кейинги йилларда чоп этилган янги адабиётлар ҳам келтирилган. Бу талабаларни ўқув ҳамда илмий адабиётларни расмийлаштиришга ўргатади.

Бу эса ўз навбатида Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлигининг 2016 йил 6 апрелдаги 137- сонли буйруғида кўрсатилган

талаблар асосида бажарилганлиги ҳамда илғор жаҳон тажрибалари, услубиёти ва технологиялари билан етарлича бойитилгалигидан далолат беради.

Ўқув қўлланма, кирилл имлосида ёзилган китобдир. Ўқув қўлланманинг охирида келтирилган турли йилларда нашр қилинган адабиётлар, шу жумладан, сўнги беш йилда чоп этилган адабиётлар ҳам бор.

Ўқув қўлланма ўз мазмун ва моҳияти, тузилиши ва бошқа жиҳатлари билан замонавий ўқув қўлланмаларга қўйиладиган барча ўқув-методик, илмий ва дидактик талабларга тўлиқ жавоб беради. Юқоридагилардан келиб чиқиб, “Ҳаёт фаолияти хавфсизлиги” ўқув қўлланмасини нашр этишга тавсия этаман.

Такризчи:

Бухоро давлат тиббиёт институти
профессори, тиббиёт фанлари доктори

Ш.Ж. Тешаев

